

## ALEKSANDR ARKADEVICH FAYNBERGNING “KIMNING TILI YO’QDIR, YO’Q UNDA HUQUQ...” SHE’RI TAHLILI

**Nurmaxmatova Firuza Rasulovna**

O’zbekiston Davlat Jahon Tillari

Universiteti Ingliz filologiyasi

Fakulteti 2-bosqich talabasi

[feruzanurmaxmatova2005@gmail.com](mailto:feruzanurmaxmatova2005@gmail.com)

**Annotatsiya:** XX asr taraqqiyotida inson ruhiy dunyosini, jamiyatning ma’naviy og’riqlarini hamda zamon ziddiyatlarini chuqur falsafiy mushohada bilan ifodalagan ijodkorlar orasida Aleksandr Arkadevich Faynberg alohida ahamiyat kasb etadi. Uning she’riy yo’li milliy va umuminsoniy chorrahada shakllangan bo’lib, unda Sharqqa xos bo’lgan noziklik va did, G’arb intellekti uyg’unlashib ketadi. Shoir badiiy olami oddiygina tasviriy vositalar cheklanib qolgan emas; u voqeliklar zamirida yotgan ma’naviy qatlamni, insoniyat taqdiriga daxldor masalarni olib chiqishga intiladi. Bugungi globallashuv kuchayib borayotgan bir davrda, inson va tabiat o’rtasidagi uzilmas rishtalar, texnik rivojlanish oqibatlari, axloqiy qadriyatlarning sustlashib yemirilib borish jarayoni singari dolzarb muammolar tobora keskinlashib bormoqda. Garchi fan va texnikada erishilgan yutuqlar biz insonlar hayotini yengillashtirayotgan bo’lsa-da, tabiatga bo’ldan bosim oshib bormoqda; ruhiy muvozanat izidan chiqib, zamonaviy insonlar ongida ma’naviy bo’shliqlar yuzaga kelmoqda. Ana shunday tarixning murakkab sharoitida shoir aytgan so’zlar insonlarni ogohlikka chaqirish uchun chalingan qo’ng’iroq, vijdonni uyg’otuvchi faryoddek yangraydi. Adabiyot azaldan insonni o’ziga qaytaradigan, uni mushohada qilishga, qalb tubidagi savollarga javob izlashga undaydigan kuchli qurol sifatida xizmat qilgan. Uning she’riy qarashlarida tabiat oddiy manzara emas, tirik mavjudlik, o’z qonuniyatiga ega bo’lgan olam ko’rinishida namoyon bo’ladi. Inson bu tabiatning xo’jayini emas, balki unga bog’liq va undan ayro yasholmaydigan bir bo’lak sifatida gavdalantiriladi. Zamon ruhiyati ziddiyatlarga to’lib toshgan: bir tarafdin

taraqqiyot bo'lsa, boshqa tomondan inson ongi, ruhi, qalbida yuz berayotgan ma'naviy inqiroz. Bunday qarama-qarshiliklar albatta adabiyoda aks ettirilmasdan qolib ketmaydi. Faynberg she'rlari insonning ichki iztiroblari, global tashvishlar va umuminsoniy mas'uliyatlar masalalarini olib chiqishi bilan o'z dolzarbligini yo'qotmaydi.

Shuningdek, ijodkor asarlarida til va so'z masalasi alohida o'ringa qo'yilib, keng muhokama qilinadi. So'z faqatgina aloqa uchun ishlatiladigan vosita emas, balki inson tafakkuri va mas'uliyati mezonidir. Insonni boshqa mavjudotlardan ajratib turadigan xususiyat ham aynan til, ya'ni so'zlay olish qobiliyatidir. Mazkur maqola Aleksandr arkadevich Faynberg yuqoridagi kabi masalalarni ko'tarib chiqqan ajoyib asar „Kimning tili yo'qdir, yo'q unda huquq misralari bilan boshlanuvchi she'r g'oyaviy tahliliga bag'ishlanadi.

**Kalit so'zlar:** inson va tabiat, ekologik muammo, global xavf, ma'naviy inqiroz, befarqlik, vijdon mas'uliyati, til va huquq, insoniyat taqdiri, texnogen taraqqiyot, axloqiy tanazzul, umuminsoniy qadriyatlar, falsafiy lirika, ijtimoiy ong, ruhiy iztirob, badiiy tafakkur.

**Abstract:** Among the creators who expressed the spiritual world of man, the spiritual pains of society, and the contradictions of the times with deep philosophical observations in the development of the 20th century, Alexander Arkadyevich Feinberg is of particular importance. His poetic path was formed at the crossroads of the national and universal, where the delicacy and taste inherent in the East and the intellect of the West are harmoniously combined. The poet's artistic world is not limited to simple figurative means; he seeks to bring out the spiritual layer underlying reality and issues related to the fate of humanity. In today's era of increasing globalization, urgent problems such as the inextricable ties between man and nature, the consequences of technical development, and the gradual erosion of moral values are becoming increasingly acute. Although the achievements in science and technology make our lives easier, the pressure on nature is increasing; leaving the path of spiritual balance, the spiritual gaps are emerging. In such a complex historical context, the words spoken by the poet sound like a bell to call people to

awareness, a cry that awakens conscience. Literature has long served as a powerful weapon that brings a person back to himself, encourages him to observe, to seek answers to the questions deep in his heart. In his poetic vision, nature is not a simple landscape, but a living being, a world with its own laws. Man is not the master of this nature, but rather a part that depends on it and cannot live without it. The spirit of the times is full of contradictions: on the one hand, there is progress, and on the other hand, there is a spiritual crisis taking place in the human mind, spirit, and heart. Such contradictions certainly cannot go unnoticed in literature. Feinberg's poems bring out the issues of human inner suffering, global concerns, and universal human responsibilities. does not lose its relevance. Also, the issue of language and words is given a special place in the creative works and is widely discussed. Words are not only a means of communication, but also a criterion of human thought and responsibility. The feature that distinguishes a person from other creatures is precisely language, that is, the ability to speak. This article is devoted to the ideological analysis of the poem "Whoever has no language, has no law", which begins with the lines of the wonderful work "Whoever has no language, has no law" by Alexander Arkadyevich Feinberg, which raises the above issues.

**Keywords:** man and nature, ecological problem, global danger, spiritual crisis, indifference, responsibility of conscience, language and law, the fate of humanity, technogenic development, moral decline, universal human values, philosophical lyrics, social consciousness, spiritual suffering, artistic thinking.

**Аннотация:** Среди творцов, выразивших духовный мир человека, духовные муки общества и противоречия времени с помощью глубоких философских наблюдений в развитии XX века, особое место занимает Александр Аркадьевич Файнберг. Его поэтический путь сформировался на стыке национального и универсального, где гармонично сочетаются утонченность и вкус, присущие Востоку, и интеллект Запада. Художественный мир поэта не ограничивается простыми образными средствами; он стремится выявить духовный слой, лежащий в основе реальности, и вопросы, связанные с судьбой человечества. В современную

эпоху растущей глобализации все более острыми становятся такие насущные проблемы, как неразрывная связь человека и природы, последствия технического развития и постепенное размывание нравственных ценностей. Хотя достижения науки и техники облегчают нашу жизнь, давление на природу возрастает; с пути духовного равновесия возникают духовные разрывы. В таком сложном историческом контексте слова поэта звучат как колокол, призывающий людей к осознанию, крик, пробуждающий совесть. Литература издавна служила мощным оружием, возвращающим человека к самому себе, побуждающим его наблюдать, искать ответы на вопросы, глубоко запрятанные в его сердце. В его поэтическом видении природа — это не просто ландшафт, а живое существо, мир со своими законами. Человек не является хозяином этой природы, а скорее частью, зависящей от неё и не способной жить без неё. Дух времени полон противоречий: с одной стороны, есть прогресс, а с другой — духовный кризис, происходящий в человеческом разуме, духе и сердце. Такие противоречия, безусловно, не могут остаться незамеченными в литературе. Стихи Файнберга затрагивают вопросы внутренних человеческих страданий, глобальных проблем и всеобщей ответственности человека, не теряя своей актуальности. Также особое место в творчестве занимает вопрос языка и слов, который широко обсуждается. Слова — это не только средство коммуникации, но и критерий человеческого мышления и ответственности. Отличительной чертой человека от других существ является именно язык, то есть способность говорить. Данная статья посвящена идеологическому анализу стихотворения «У кого нет языка, у кого нет закона», которое начинается со строк замечательного произведения Александра Аркадьевича Файнберга «У кого нет языка, у кого нет закона», поднимающего вышеуказанные вопросы.

**Ключевые слова:** человек и природа, экологическая проблема, глобальная опасность, духовный кризис, безразличие, ответственность совести, язык и закон, судьба человечества, техногенное развитие, моральный упадок, универсальные

человеческие ценности, философская лирика, общественное сознание, духовные страдания, художественное мышление.

O'zbek adabiyotida ko'pchilik ijodkorlar qatorida Aleksandr Faynberg ham til masalasiga ko'p bora murojaat qilgan. Uning asarlari, xususan «Kimning tili yo'qdir, yo'q unda huquq...» she'ri ham til masalasi axloqiy va falsafiy mazmuni o'zida jamlagan. Shoir bu tushunchani boshqa ijodkorlarga qaraganda kengroq ma'noda talqin etgan: til-bu e'tiroz, ogohlantirish, himoya va haqiqatni baralla aytish huquqi. Bundan tashqari, zamonaviy dunyoda befarqlik muammosi ham o'ta dolzarb. Axborot oqimi kuchaygan sari insonlar har kuni sanoqsiz fojealarga guvoh bo'lmoqdalar, ammo ularning bari ta'sirchan va munosabat bildirish borasida no'noq. Buning natijasi o'laroq ruhiy loqayliq degan tushuncha paydo bo'ldi. Adabiyot esa aynan mana shu loqaydlikni sindirish, inson qalbini uyg'otish vazifasini bajaradi. Shoirning ijodiy pozitsiyasi ham befarqlikka qarshi ma'naviy ko'rash yo'sinida talqin qilib beriladi.

Kimning tili yo'qdir, yo'q unda huquq,

Ummonlar suviga biz og'u qo'shdik.

Delfinlar otilib qirg'oqqa tushdi,

O'lsa ham biror so'z aytishgani yo'q.

Daraxtlar gapirmas, kesilar o'rmon.

Tog' boshiga yugan solar lokator.

Sahro osmonida lovullar yadro,

Yonadi tili yo'q maysa, o't-o'lan.

Suv gap qaytarmaydi, gap qaytarmas tosh,

Sher olovga sakrar ursang, egib bosh.

Uchar qushlar o'lar to'p otganda o'q.

Yaralgandan buyon bu ko'hna dunyo

Befarqmiz. Uyatdan o'lganimiz yo'q.

Ne uchun til berding odamga, Xudo?!

Mazkur she'r o'z mazmun-mohiyat jihatidan umuminsoniy xarakterga ega bo'lgan, chuqur ijtimoiy-falsafiy ohang bilan yo'g'irilgan asardir. Unda shoir inson va tabiat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni, zamonaviy taraqqiyotning ikki qirrali mohiyatini hamda insonning ma'naviy mas'uliyati masalasini keng qamrovli yoritadi. Asar oddiy tasvirlar va yoki hissiy kechinma tasniflari bilan cheklanib qolmagan; u o'quvchini o'zi haqida fikr yuritib, vijdoni bilan yuzma-yuz kelishga da'vat etadi.

She'rning umumiy ruhida ogohlikkaq chorlash kayfiyati ustun. Shoir inson bolasini o'z qobilyatlariga ortiqcha ishonib yuborgani, tabiatni zabt etish va unga hukmronlik qilish xohishi qanday ayanchli oqibatlariga olib kelganini umumlashtirib ko'rsatib beradi. Bu yerda asl fikr tabiatdagi o'zgarishlar xususida emas, insonlarda tobora kuchayib borayotgan befarqlik tuyg'usi haqida boradi. Tabiatning sukutda berilgani inson faoliyatini yanada keskinlashtirib ko'rsatadi.

Asarda "til" tushunchasi ramziy ma'noni kasb etadi. Til bu faqat insonlar bir biri bilan muloqot qilish uchun foydalanadigan vosita emas, balki huquq, ovoz, e'tiroz, mas'uliyat belgisi ham sanaladi. Faynberg fikriga ko'ra til bu insonni hayondan ajratib turadigan jihatdir. Bu ne'mat insonga so'zlash, o'z fikrini bildirish haqiqatni aytish imkonini taqdim etadi. Shu ma'noda she'r insonni o'z qobilyatlarini anglagan holda undan unumli foydalanishga chaqiradi.

Asarning umumiy mazmunida kuchli axloqiy qatlam mavjud. Shoir insonlarni befarqlikda ayblar ekan, u o'z fikrini keskin yoki bo'lmasa da'vat ohangida emas, chuqur iztirob va ichki og'riq orqali ko'rsatib beradi. She'rda alam, nadomat va ogohlantirish kabi hissiyotlar bir-biriga aralshib ketgan. O'quvchi asarni mutolaa qilar ekan, nafaqat tashqi voqelik, balki o'z ichki olami haqida ham mulohaza yurutishga majbur bo'ladi.

Badiiy jihatdan olib qaraganda she'r sodda va lo'nda jummalardan iborat. Shunga qaramasdan unda ishlatilgan ifoda va timsollar o'ta keng ma'noni ifodalaydi. Shoir tabiat manzaralari asosida inson ruhiy holatini ochib beradi. Bu asar tabiat haqidagi emas, balki insoniylik mezonlari haqidagi falsafiy mushohada darajasiga ko'tarilgan durdonadir.

She'rning umumiy g'oyaviy yo'nalishi shundan iboratki, inson mas'uliyatli bo'lishi darkor. Inson tabiatdan ustun emas, uning ajralmas bir bo'lagi ekanini anglash-asarning asosiy xulosalaridandir. Agar inson o'z tilidan, o'z ongidan va o'ziga berilgan imkoniyatlardan to'g'ri foydalana olmasa, bu ne'mat o'z qimmatini yo'qotadi.

Xulosa qilib aytganda, Aleksandr Arkadevich Faynbergning ushbu she'ri zamonaviy adabiyotning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lmish inson va vijdon muammosini ko'tarib chiqadi. Asar o'quvchini befarq kuzatuvchi bo'lmaslikka, hayotda o'zining o'rnini belgilagan holda harakat qilishga, tabiat va hayot qarshisidagi mas'uliyatni his qilib yashashga undaydi. Shu boisdan she'r faqat badiiy qiymati, balki tarbiyaviy va ma'naviy qiymati bilan ham muhimdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mustaqillik davri o'zbek she'riyati bo'yicha ilmiy maqolalar to'plami. – Toshkent: Turon zamin ziyo.
2. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti.
3. Ruzikulova M. She'riyatda ruhiy kechinma va badiiy ifoda uyg'unligi. — “Adabiyot nazariyasi jurnali”, №3, 2022.
4. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Aleksandr\\_Faynberg](https://uz.wikipedia.org/wiki/Aleksandr_Faynberg)
5. <https://arm.samdhti.uz/library/download/692>
6. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-she-riyati/rus-she-riyati/aleksandr-faynberg-1939-2009>